



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 05 | pp. 108-116 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AYLANMA MABLAG'LAR JOYLASHUVINING KICHIK BIZNES SUB'EKLTLARI LIKVIDLILIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH



Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich

mustaqil izlanuvchi

Namangan Davlat Texnika Universiteti

email: bahtiyor_kuchkarov@gmail.com

Annotation. Ushbu maqola aylanma mablag'larning kichik biznes sub'ektlarining likvidligiga ta'sirini baholashga bag'ishlan bo'lib, unda aylanma mablag'larning tuzilishi, xususiyatlari va ularning likvidlikka ta'siri tahlil qilingan. Maqolada statistik ma'lumotlar va tadqiqot natijalari asosida, aylanma mablag'larning samarali boshqarilishi, likvidlikni oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlar, hamda biznesning moliyaviy holatini yaxshilash uchun takliflar ko'rib chiqilgan.

Keywords: aylanma mablag'lari, likvidlik, kichik biznes, moliyaviy resurslar, to'lov qobiliyati, innovatsiyalar, moliyaviy barqarorlik, statistik tahlil, zaxiralar, moliyaviy boshqaruvi.

Аннотация. Данная статья посвящена оценке влияния оборотных средств на ликвидность субъектов малого бизнеса. В ней анализируются структура и характеристики оборотных средств и их влияние на ликвидность. На основе статистических данных и результатов исследований рассмотрены стратегические подходы к эффективному управлению оборотными средствами, направленные на повышение ликвидности, а также предложения по улучшению финансового состояния бизнеса.

Ключевые слова: оборотные средства, ликвидность, малый бизнес, финансовые ресурсы, платежеспособность, инновации, финансовая устойчивость, статистический анализ, запасы, финансовое управление.

Abstract. This article is dedicated to assessing the impact of current assets on the liquidity of small business entities. It analyzes the structure and characteristics of current assets and their influence on liquidity. Based on statistical data and research findings, the article discusses strategic approaches to effective management of current assets aimed at enhancing liquidity, as well as proposals for improving the financial condition of businesses.

Keywords: current assets, liquidity, small business, financial resources, solvency, innovations, financial stability, statistical analysis, inventories, financial management.

Kirish

Kichik biznes sub'ektlari iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning faoliyati, jumladan, mahalliy iqtisodni shakllantirish, ish o'rirlari yaratish va innovatsiyalarni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Kichik bizneslar sub'ektlaridan samarali faoliyat yuritishlarida ulardan o'ziga xos moliyaviy resurslarni samarali

boshqarishni talab qiladi.[1] Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish aylanma mablag'larni optimal joylashtirish va likvidlikni ta'minlash orqali o'z faoliyatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish tushuniladi.

Kichik biznesda aylanma mablag'lar – bu aktivlardan, masalan, pul mablag'lari, debitor qarzlar, tovar moddiy zaxiralari va qisqa muddatli investitsiyalardan iborat bo'lib, uning asosiy xususiyati tezkorlik bilan pulga aylantirilishi, qisqa muddatli aktivligi, o'zgaruvchanligi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhimligi bilan ajralib turadi.[3] Likvidlilik esa biznesning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatini ko'rsatadi. Kichik biznesda likvidlikni ta'minlash uchun aylanma mablag'larning joylashuvi juda ahamiyatlidir. Likvidlik darajasi yuqori bo'lsa, biznesning moliyaviy holati mustahkam bo'ladi. Korxona uchun likvidlilik nima uchun kerak, likvidlilikni ta'minlamasa nima bo'ladi kabi savollarga biz shuni aytamizki, korxonaning to'lov qobiliyatini pasayishi, kredit olishda muammolarning yuzaga kelishi, moliyaviy risklarning ortishi, bankrotlik xavfining yuzaga kelishi, moliyaviy sharoitning yomolashuviga olib keladi. Shuning uchun kichik biznes sub'ektlari uchun aylanma mablag'larni eng samarali joylashtiruviga erishish orqali uning likvidlilik darajasini oshirib borish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. [4]

Adabiyotlar tahlili

Kichik biznes sub'ektlarining aylanma mablag'larini mazmun va mohiyati, uni shakllantirish va boshqarish yuzasidan bir qancha iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha o'rGANIB chiqilgan. Tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy resurslari, aylanma mablag'lari, sub'ektning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ularga taaluqli kapitallarning manbalarini shakllantirish masalalari A.Smit, A.Tyurgo, P.Samuelson, R.Xizrich, I.Shumpeter asarlarida atroflicha o'rGANILGAN. Ushbu iqtisodchi olimlarning fikrlariga ko'ra korxona aylanma mablag'lari uning kunlik faoliyat yuritishi uchun zarur bo'ladigan pul mablag'lari majmuasi xisoblanib, kundalik extiyojlarini o'z vaqtida qoplash uchun zaruriy vositadir deb baxolashgan.[5] Bizningcha aylanma mablag'lar korxonaning faoliyat yuritishida zaruriy bo'lgan pul mablag'lari majmui xisoblanib, bir kalendar yili davomida mahsulot ko'rinishidan pul ko'rinishiga ko'chgan mablag'lar deb tariflash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shuningdek MDH mamlakatlari olimlari A.I.Arkipov, Ye.F.Borisov, A.V.Busigin, Yu.M.Osipova, M.A.Sajina va boshqalar tomonidan tadbirkorlik faoliyatidagi moliyaviy mablag'lar, ularning manbalarini shakllantirish, rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari tadqiq qilingan.[3] Yurtimiz olimlaridan S.S.G'ulomov, Sh.Sh.Shodmonov, T.T.Jo'raev, A.V.Vahobov, H.P.Abulqosimov, A.Qodirov, Q.Muftaydinov, N.K.Murodova, G'.P.Sharipov, M.Yu.Abdukarimova va boshqalar tadbirkorlik va ularning aylanma mablag'larini nazariy jihatlari va O'zbekistonga xos xususiyatlari bo'yicha o'zlarining ilmiy izlanishlari bilan tadbirkorlikni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.[5]

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda kichik biznes sub'ektlarining aylanma mablag'larini joylashuvini korxona likvidliligiga ta'sirini atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi kichik bizneslarning aylanma mablag'lari va uni samarali boshqarish, korxona likvidliligini ta'minlashda aylanma mablag'larni boshqaruv usullarini to'g'ri qo'llash

bilan bog'liq muammolarni aniqlash va yechimlar taklif qilishdir. Tadqiqot uchun statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar, tadqiqotlar, biznes reja va moliyaviy hisobotlardan foydalanilgan.

Tadqiqotda so'rov usuli, tahlil usuli va taqqoslama tahlil usullari qo'llaniladi. So'rov usuli orqali kichik biznes egasidan ma'lumotlar yig'ildi, tahlil usuli esa moliyaviy ma'lumotlarni statistik metodlar bilan tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Taqqoslama tahlil usuli turli manbalardan olingan aylanma mablag'larni taqqoslash va ularning samaradorligini aniqlash uchun foydalanildi. Ushbu metodologiya tadqiqot natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish, muammolarni aniqlash va yechimlarni taklif qilish jarayonida tadqiqotning asosiy xulosasi chiqariladi.

Tahlil va natijalar

Kichik biznes sub'ektlarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning maqsadli vazifalaridan biri, uning to'lov qobiliyati va likvidligini boshqarish orqali moliyaviy holatini yaxshilashdir. Bu esa konseptual jihatdan mulk egalari manfaatlariga javob beradi.[9]

Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, ko'plab korxonalar o'z faoliyatini pul mablag'larining yetishmasligi, ya'ni to'lov qobiliyatining yetarli bo'lmasligi va yetarli rentabellikka ega emasliklari sababli to'xtatadilar.[22]

To'lov qobiliyati va rentabellik o'rtaqidagi optimal muvozanatni ta'minlash - aylanma mablag'larning tegishli tuzilmasi va hajmini saqlash orqali ularni boshqarish sohasidagi muhim masalani hal qilish uchun asos bo'ladi. Bu tahlil jarayonida aylanma mablag'lar elementlarining likvidligiga e'tibor berishni talab qiladi va bunday tadqiqotning predmeti aylanma mablag'larni joylashtirish korxonaning moliyaviy holatiga, xususan, likvidligi va to'lov qobiliyatiga ta'sirini tahlil qilish hisoblanadi.

Aylanma mablag'lar va joriy majburiyatlar balansning korxonalar faoliyatining qisqa muddatli tomonlarini ko'rsatadigan bo'limlariga tegishli. Qolgan bo'limlar - o'z kapitali, uzoq muddatli majburiyatlar va uzoq muddatli aktivlar – korxonaning uzoq muddatli faoliyatini aks ettiradi.[6]

Likvidlikni boshqarish korxonani boshqarishda zarur bo'lgan mablag'larga ega bo'lishini ta'minlash uchun tegishli usullarni qo'llashni o'z ichiga oladi.[10] Likvidlik ayirboshlash yo'li bilan bir aktivning boshqasiga o'tish darajasi sifatida tavsiflanishi mumkin. Buni hisobga olgan holda, aktivlarning bir nechta turlarga ajratiladi. Korxona aktivlari naqd pulga aylanish tezligiga qarab to'rtta guruhga bo'linadi.

- 1) yuqori likvidli aktivlar- A(1);
- 2) tez xarakatlanuvchi aktivlar - A(2);
- 3) sekin xarakatlanuvchi aktivlar - A(3);
- 4) qiyin xarakatlanuvchi aktivlar - A(4);

Yuqori likvidli aktivlar(A1)ga kassadagi pul mablag'lari, hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari, chet el valyutasidagi pul mablag'lari va ekvivalentlari kiradi. Tez xarakatlanuvchi aktivlar(A2)ga tovar moddiy zaxiralar, debitor qarzdorliklar, qisqa muddatli investitsiyalar kiradi. Sekin xarakatlanuvchi aktivlar(A3)ga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli investitsiyalar, uzoq muddatli yoki muddati o'tgan debitor qarzdorliklar kiradi. Qiyin xarakatlanuvchi aktivlar(A4)ga ko'chmas mulk, maxsus texnikalar, boshqa xususiy korxonalarining aksiya paketlari kiradi.[20]

Korxonaning majburiyatlari (balans passivlari) ularni to'lash muddatiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

- 1) eng dolzarb (favqulotda) majburiyatlar - P(1),
- 2) qisqa muddatli majburiyatlar - P(2),
- 3) o'rta va uzoq muddatli majburiyatlar - P(3),
- 4) doimiy majburiyatlar - P(4).

Eng dolzarb yoki favqulotda majburiyatlar(P1)ga muddati qisqaligiga qarab kreditor qarzdorliklar, qisqa muddatli kredit va qarz mablag'lari, to'lanishi kerak bo'lgan ish xaqi va xodimlarga boshqa to'lovlar, qisqa muddatli zaxiralar, to'lanishi kerak bo'lgan soliqlar kiritiladi. Qisqa muddatli majburiyatlar(P2)ga esa ushbu eng dolzarb majburiyatlarning bir yilgacha yoki bir aylanma davri mobaynida bajarilishi zarur bo'lgan majburiyatlar kiritiladi. O'rta va uzoq muddatli majburiyatlar(P3)ga o'rta va uzoq muddatli kredit va qarz mablag'lari, obligatsiyalar, ijara bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar, kechiktirilgan soliq majburiyatlari, kechiktirilgan to'lovlar kiradi. Doimiy majburiyatlar(P4)ga ustav kapitali, rezerv kapitali, qo'shilgan kapital kiritiladi.

Korxonaning balansi quyidagi shartlar bajarilsa mutloq likvid deb baxolanadi:

$$A(1) \geq P(1); \quad (1)$$

$$A(2) \geq P(2); \quad (2)$$

$$A(3) \geq P(3); \quad (3)$$

$$A(4) \leq P(4); \quad (4)$$

2020-2024 yillar davomida tadqiqot olib borilayotgan "Fashion dress" MChJ kichik biznes sub'ektining likvidliligini taxlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tadqiqot qilinayotgan kichik biznes sub'ektlarining to'lov profitsiti/defitsiti

Aktiv va passivlarning taqqoslanishi	2020 y.	2024 y.
	mln.so'mda	
A1 - P1 >0	-11.4	-3.4
A2 - P2 >0	685.5	4 170.7
A3 - P3 >0	382.6	339.6
A4 - P4 <0	-564.8	-2 583.5

Manba: "Fashion dress" MCHJ ning 01.01.2021 va 01.01.2025 yil holatiga balans (F1) hisoboti ko'rsatkichlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

1-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, korxonaning balansini (1)...-(4) shartlarga muvofiq mutloq likvid deb aytish qiyin. Chunki korxonaning yuqori likvidli aktivlari (A1) miqdori eng dolzarb (favqulotda) majburiyatları (P1) miqdoridan deyarli har yili pastroq miqdorda saqlanmoqda. Bu esa korxonalarning favqulotda yuzaga keluvchi majburiyatlarning yuqori likvidli aktivlari bilan qoplash hal etilmagan. Bu xolatda korxonaga yuqori likvidli aktivlar ya'ni naqd pul mablag'lari miqdorini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Kichik biznes sub'ektlarining likvidligini baholash amaliyotida odatda, joriy, shoshilinch va absolyut likvidlik koeffitsientlari kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Ushbu ko'rsatkichlar aylanma mablag'larning moliyaviy holatga ta'sirini aniqlash uchun qo'llaniladi. Korxona doimiy joriy likvidlik koeffitsientiga ega bo'lishi mumkin, ammo shoshilinch likvidlik koeffitsienti past bo'lishi mumkin. Bu eng xavfli belgilardan biri hisoblanadi, chunki bu ortiqcha zaxiralar, debtor qarzlari va pul mablag'larini qisqartirish hisobiga shakllanishi mumkin. Bu holat korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ko'rsatilgan likvidlik koeffitsientlari-qisqa muddatli likvidlikning eng keng tarqalgan ko'rsatkichlaridir, ammo ularning kamchiliklari shundaki, bu faqatgina ularni aniqlash vaqtidagi vaziyatni ko'rsatadi (ya'ni oxirgi balans tuzish vaqtida). Ushbu kamchilikni bartaraf qilish maqsadida odatda, korxonaga yaqin vaqt ichida keladigan pul oqimlarini aniqlash texnikasi qo'llaniladi. Bundan tashqari, korxonaning kelajakdagi to'lov qobiliyatini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkich - EID (o'z ishlab chiqarish aylanma kapitali bilan ta'minlanishi) dir.[10]

Likvidlik va to'lov qobiliyati holatini to'liqroq tasvirlash uchun aylanma mablag'larni o'z aylanma kapitali bilan ta'minlanish koeffitsienti (*O'ay*) va tovar-moddiy zaxiralarning qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashdagi ishtirok koeffitsienti hisoblanadi.

Aylanma mablag'larni likvidlik darajasi va risk bo'yicha tasnifi quyidagicha aks etadi:

- Yuqori likvidli mablag'lar** – tezda pulga aylantirilishi mumkin bo'lgan aktivlar (masalan, naqd pullar, debtor qarzlar).
- O'rta likvidli mablag'lar** – ma'lum vaqt ichida pulga aylantirilishi mumkin bo'lgan aktivlar (masalan, tovar moddiy zaxiralar).
- Past likvidli mablag'lar** – pulga aylantirish uchun ko'proq vaqt talab qiladigan aktivlar (masalan, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli investitsiyalar, mulk va inshootlar).[12]

Tadqiqot olib borilayotgan "Fashion Dress" MChJ kichik biznes sub'ektining likvidlik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlarini hisoblash, aylanma mablag'larni likvidlik darajasi va investitsiya tavakkalchiligi bo'yicha tasniflash, 2020-2024 yillar uchun tegishli likvidlik darajasidagi aylanma mablag'larning umumiyligi aylanma mablag'lar tarkibidagi ulushini aniqlash quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

"Fashion dress" MChJ kichik biznes sub'ektining likvidliligi va to'lov qobiliyati tahlili (2020-2024 yillar)

№	Ko'rsatkich nomi	"Fashion dress" MChJ				
		2020	2023	+/-	2024	+/-
1	Likvidlilik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari %da					
1.1	Joriy likvidlik koeffitsienti	3,92	1,58	-2,34	2,50	0,92
1.2	Tez likvidlilik koeffitsienti	1,44	0,43	-1,01	0,99	0,56
1.3	Mutloq likvidlilik koeffitsienti	0,01	0,01	0,00	0,01	0,00

1.4	Tovar moddiy zaxiralarning qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash koeffitsienti	2,48	1,15	-1,33	1,51	0,36
1.5	Ishchi kapital bilan ta'minlanganlik koeffitsienti	0,62	1,46	0,84	1,95	0,49
2	Aylanma mablag'larning likvidlilik darajasi va investitsiya xavfi bo'yicha tasnifi, mln.so'mda					
2.1	Yuqori likvidli	336,3	1 518,9	1 182,6	2 749,4	1 230,5
2.2	O'rta likvidli	588,4	4 379,1	3 790,7	4 199,8	-179,3
2.3	Past likvidli	7,1	126,3	119,2	0,00	-126,3
3	Tegishli likvidlilik darajasiga ega bo'lgan aylanma mablag'larning umumiy aylanma mablag'lardagi ulushi, %					
3.1	Yuqori likvidli	36,09	25,21	-10,88	39,56	14,36
3.2	O'rta likvidli	63,14	72,69	9,55	60,44	-12,25
3.3	Past likvidli	0,77	2,10	1,33	0,00	-2,10

Manba: "Fashion dress" MChJ ning 2020-2024 yillardagi balans (F1) va moliyaviy natijalar to'g'risidagi (F2) hisobot ko'rsatkichlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

"Fashion dress" MChJ kichik biznes sub'ektining likvidlilik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari 2020-2024 yillarda tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, joriy likvidlik koeffitsienti 2020 yilda 3,92 dan 2023 yilda 1,58 ga pastlagan, 2024 yilda 2,50 ga oshdi, bu joriy aktivlarning majburiyatlarni qoplash qobiliyatini ko'rsatadi. Tez likvidlik koeffitsienti ham pasaygan va 2024 yilda 0,99 ga ko'tarilgan. Mutloq likvidlik koeffitsienti o'zgarmas bo'lib, 0,01 ni tashkil etdi. Ishchi kapital bilan ta'minlanganlik koeffitsienti 2023 yilda 1,46 ga yetib, 2024 yilda 1,95 ga o'sdi.

Aylanma mablag'larning likvidlilik darajasi yuqori likvidli aktivlar 2023 yilda 1 518,9 mln.so'mga yetib bu jami aylanma mablag'larning 25,21 foizini, 2024 yilda 2 749,4 mln.so'mga ko'tarilib, 39,56 foizga yetganini, bu esa aylanma mablag'larning likvidliligi yaxshilanganligini ko'rsatadi. O'rta likvidli aktivlar har yili maksimal ko'rsatkichni aks ettirmoqda va past likvidli aylanma mablag'lar deyarli mavjud emasligi ham ijobjiy baxolanadi.

2-jadval natijalari kichik biznes sub'ektining likvidlilik holatini umumiy ko'rsatib, 2020 yildan 2023 yilgacha ko'plab ko'rsatkichlar pasaygan bo'lsa, ammo 2024 yilda ba'zi ko'rsatkichlar yaxshilangan, bu aktivlarni samarali boshqarish va likvidlikni oshirish kerakligini ko'rsatadi.

Bunga quyidagi usul bilan erishish mumkin deb hisoblaymiz.

Dastavval, moliyaviy operatsiyalarni to'g'ri rejalashtirish zarur. Buning uchun samarali byudjetlashtirish va kassa qismlarni boshqarish muhimdir. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini optimallashtirish ham muhim ahamiyatga ega: debtorlardan mablag'larni tezda olish va kreditorlarga to'lovlarini muddatidan kechiktirish orqali likvidlikni oshirish mumkin.

Zaxiralarni samarali boshqarish va zaxiralarni optimallashtirish, shuningdek, talabga muvofiq mahsulotlarni tayyorlash muhim. Likvidligi yuqori aktivlarga

investitsiya qilish va tadbirkorlik samaradorligini oshirish uchun yangi biznes imkoniyatlarini izlash kerak.

Qarz mablag'lari olish va investitsiyalarni jalg qilish orqali likvidlikni oshirish imkoniyati ham mavjud. Tashkiliy strukturani optimallashtirish va xodimlarning malakalarini oshirish, samaradorlikni yanada oshirishga yordam beradi. Moliyaviy tahlilni muntazam amalga oshirish va likvidlilik ko'rsatkichlarini kuzatish orqali to'g'ri qarorlar qabul qilish mumkin. Ushbu choralarни amalga oshirish, kompaniyaning likvidlilik holatini yaxshilash va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa

Aylanma mablag'larning joylashuvi korxonaning likvidlilik darajasiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Likvidlilik, ya'ni korxonaning o'z majburiyatlarini (qarzlarini) qisqa muddatda, ya'ni tezda bajara olish qobiliyati, moliyaviy sog'lomlikni ta'minlashda muhim rol o'yndaydi.

Aylanma mablag'larning samarali boshqarilishi, zaxiralar, debitor qarzlari va pul mablag'larini to'g'ri joylashtirish likvidlilikni ta'minlashga yordam beradi. Agar korxonada zaxiralar juda ko'p bo'lsa, lekin pul mablag'lari yetishmasligi natijasida korxona shoshilinch majburiyatlarini bajara olmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda, korxona moliyaviy ahvolini yomonlashtirishi, hatto bankrotlikka olib kelishi mumkin.

Likvidlilik darajasini yuqori saqlash, korxonaning shoshilinch majburiyatlarini bajara olish qobiliyatini oshiradi. Bu o'z navbatida, moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Mablag'larni to'g'ri joylashtirish, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirishga ham yordam beradi, chunki zarur resurslar doim mavjud bo'ladi. Shuningdek, aylanma mablag'larning joylashuvini tahlil qilish, moliyaviy risklarni kamaytirishga yordam beradi. Bunday tahlillar, korxona rahbariyatiga moliyaviy holatni yaxshilash va barqarorligini ta'minlash uchun aniq strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Kichik biznes sub'ektlarining aylanma mablag'lardan samarali foydalanish va ularning likvidlilik darajasini yanada oshirish maqsadida avtomatlashtirish va raqamlashtirish, tovar zaxiralarini optimallashtirish, kreditlash tizimini takomillashtirish, moliyaviy rejalashtirish, ta'minot zanjirini optimallashtirish, bozorni kengaytirish, moliyaviy ta'limni doimiy olib borish, xamkorlik munosabatlarini yaxshilash kabi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati (references):

1. Алкаиси Т. Современные источники формирования капитала в сфере малого бизнеса. // Студенческий вестник. 2022.. № 5-4 (197). С. 36-37.
2. Аббасова О. М. Совершенствование развития предприятий малого бизнеса // Вестник Академии знаний. 2020. № 3 (38). С. 10–14.
3. Akramov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. - T.: Moliya, 2003. – B. 35-85.
4. Бикметова З. М. Основные направления обеспечения финансовой безопасности предприятия // Актуальные вопросы современной экономики. 2019. № 6 (1). С. 363-370.
5. Burxanov A.U., Hamdamov O.N. "Moliyaviy menejment". Darslik. -Toshkent : Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020y.

6. Voxobov A., Ibroximov A., Ishonqulov N., "Moliyaviy va boshqaruv taxlili". – Toshkent: "Sharq" Nashriyot – matbaa AK, 2005y.
7. Гараев И.И. Особенности управления основным капиталом предприятия. Modern Science.2021. № 1-2. S. 41-42.
8. Maxmudov E.X., "Korxona iqtisodiyoti". – Toshkent: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2004 y.
9. Мартыненко,В.А., Мезенцева,Л.В., Шемшурина,С.А. К оценке финансового состояния сервисного предприятия. // Вестник Волжского университета.-2018.-№1.- Т.2.-68-73 б.
10. Moergan T. Liquidity Management Techniques [Elektron manba] /T. Moergan // - 2010. https://www.ehow.com/about_7411512-liquidity-management-techniques.html
11. Орехов С.А. Управление основным капиталом предприятия. Молодеж и наука. 2016. № 4.С. 156 б.
12. Паршин А.Б. Финансовые инструменты управления основным капиталом предприятия и особенности их применения в РФ. А. Б. Паршин, О.А. Окорокова. Тхе Ссиентифис Ҳеритаге. № 66-3 (66). С. 12-15.
13. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil: (Uslubiy ko'rgazmalar va tavsiyalar). - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2019. – B. 197.
14. Padachi K., International Review of business research papers, 2006–citeseer. Vo.2 No. 2. October 2006, Pp. 45 -58. "Trends in Working Capital Management and its Impact on Firms' Performance: An Analysis of Mauritian Small Manufacturing Firms.
15. Разинков П.И., Максимова А.Д. Ключевые направления эффективного управления капиталом предприятия. "Тхеория: педагогика, экономика, право". 2021. № 4(5). С. 135-141.
16. Qo'chqarov B.X., "Kichik biznes sub'ektlarida aylanma mablag'larni boshqarishda moliyaviy rejalshtirishning ahamiyati". – Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi,2025-1/2, Xiva 2025y.
17. Qo'chqarov B.X., Saitbayev Sh.D., "Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini aylanma vositalarini shakllantirishdagi muammolar va rivojlantirish istiqbollari".-Science Problems.Uz elektron jurnal, Vo:9/S ISSN:2181-1342, bb711-718, 2024y. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N19>
18. Qosimov X.Q., Aslanova D.X., Ergashev R.E., "Korxona iqtisodiyoti" o'quv qo'llanma. Samarqand, SamDU nashri 2008y.
19. Qo'chqarov B.X., "Korxona kapitalini samarali boshqarishning asosiy yo'nalishlari". Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4(8), sep.2024. 224-232b.
20. Kuchkarov B.X., Innovative approaches to managing working capital of small business entities in the conditions of the economy of Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management. Vo:7 Issue:10, ISSN:2576-5973, <https://doi.org/10.31150/ajebm.v7i10.2996>
21. Kuchkarov B.X., Methods of forming and effectively managing working capital for small business entities in the context of the new Uzbekistan economy. Central Asian

Journal of Innovations on Tourism Management and Finance (CAJITMF) Vo:06
Issue:01/January 2025, ISSN:2660-454X, <https://doi.org/10.17605/cajitmf.v6i1.832>

22. Янина, Д.А., Николаенко, Н.Г. Анализ финансово-экономических показателей предприятие// Электронный научно-методический журнал Омского ГАУ. - 2017. - №4 (11)

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

